

## BADIIY TARJIMADA SHE'RIY SAN'ATLAR MUTANOSIBLIGI

Anvarova Zulfiyaxon

**Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktabi**

**“Badiiy tarjima” to‘garagi o‘quvchisi**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.14716079>**

Muhammad Yusuf o‘zbek xalqining eng sevimli shoirlaridan biri edi. U qisqa umr ko‘rgan bo‘lsa-da, o‘z she‘rlari bilan kitobxonlar qalbida o‘chmas iz qoldirgan sevimli va erka shoirdir. U xalqning yuragidagi dardni yaxshi his eta olgan. Shu sababli, mehnatkash, soddadil insonning dard-hasratlarini o‘zida mujassam etgan she‘rlari kitobxonlar ko‘nglidan tez o‘rin oladi. Shoir qaysi mavzuda she‘r yozmasin, unda Vatanning nafasi ufurib turadi. Muhammad Yusufning shoirligi Vatan nomli buyuk ildizga borib tutashadi. U shoirlikka biror-bir martaba yoki mansab sifatida qaramaydi, aksincha Vatani oldidagi ma‘suliyat deb qaraydi. Shoir she‘rlarini tashqaridan kuzatib emas, xalq orasida yashab yaratdi. Shuning uchun ham xalq dardi, armoni va iztiroblarini chuqur his eta bilgan. Qalbdan chiqqan sodda, samimiy tuyg‘ular xalq qalbidan chuqur joy ola bildi.

Shoir nafaqat O‘zbekistonda, balki butun jahonda o‘z ixlosmandlariga ega ijodkor hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan shoir ijodidagi durdona asarlarni chet tillariga tarjima qilish dolzarb masalardan biridir.

Hozirgi kunda o‘zbek adiblarining ijodiy ishlari, asarlarini turli chet tillariga tarjima qilish adabiyotshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Adabiyot – so‘z san‘ati hisoblanar ekan, badiiy asarlar tarjimasiga nisbatan ham bu ta‘rifni qo‘llash mumkin. Chunki tarjima adabiyoti original adabiyotning hosilasi. Badiiy asarlar tarjimasini uchun til bilishning o‘zi kifoya qilmaydi, buning uchun ijodkorlik iste‘dodi va badiiyat ilmidan xabardorlik ham talab etiladi. Tarjima san‘ati lisoniy faoliyatga asoslangan soha bo‘lib, o‘zida bir qancha lingvistik va ekstralingvistik omillar va turli qiyinchiliklarni aks ettiradi. Biz Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktabida tashkil etilgan “Badiiy tarjima” to‘garagida shoirning “She‘riyat bu...” she‘rini ingliz tiliga tarjima qilishga urindik, va undagi ba‘zi she‘riy uslublar va vositalarning boshqa tillardagi ekvivalentlarini ko‘rib chiqdik.

Tarjimaning muhim muammolaridan biri bu turli tillardagi frazeologizmlar (maqol, matal, idioma) tarjimasidir. K.Chukovskiy iloji boricha maqollarni so‘zma-so‘z tarjima qilishga intilish kerakligini aytadi. Chunki “ular da xalqning tug‘ma xususiyati, fikrlashning milliy uslubi o‘z ifodasini topgan bo‘ladi”, – deb yozadi. Ammo ba‘zan shoirlar shaxsiy ko‘chirimlar va o‘xshatishlardan ham foydalanishadi. Ushbu poetik hodisalar tarjimasini ba‘zi o‘zgarishlarga ham yo‘l berishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, yuqoridagi she‘rda “kiyik so‘qmoq” iborasiga yuzlansak.

She‘riyat bu – qadim buyuk

so‘qmoq ekan...

*Kiyik so‘qmoq ekan, kiyik*

*so‘qmoq ekan.*

Ushbu jumla orqali shoir she‘riyat so‘qmog‘ining naqadar nozik va nafis ekanligini, u bilan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish lozimligini ushbu metafora orqali ifodalagan. Yuqoridagi misralarni tarjima qilish jarayonida tarjima imkoniyatlarini hisobga olgan holda metafora obyektini o‘zgartirishga jazm qildik. Huddi shu ma‘noni beruvchi poetik uslubdagi sifatdan foydalandik:

Poetry is ancient, poetry is- grand

It's a path...

*The path so delicate, the path*

*So delicate.*

Yozuvchining o'ziga xos uslubini va badiiy asar tilini jozibador, emotsional-ekspressiv ta'sirchan qilib beruvchi shunday tasviriy vositalar borki, ulardan biri oksyumoronlar hisoblanadi. Kishi yoki predmetning tabiati va mohiyatiga xos bo'lmagan zid belgini unga nisbatan qo'llash orqali antonimik munosabat hosil qilish oksimoron deyiladi. She'riyatda va adabiyotda ushbu stilistik uslubdan keng foydalaniladi. Misol uchun,

*Shirin azob ekan, jonni*

Yoqmoq ekan,

Bir qo'lda gul, bir qo'lingda

chaqmoq ekan.

Mazkur she'riy parchada shoir she'riyatni shirin azob oksyumoroni orqali ta'ri flaydi. Ya'ni, shoir ilhom kelgan vaqtda qalbida qandaydir dardni his qilsagina ma'lum bir she'r yarata olishini ta'kidlaydi. Mana shu ilhom kelgan vaqtdagi holat, kechinma, tuyg'ular, ko'zyoshlar azob bo'lsa, u tufayli dunyoga kelgan she'rni juda shirin ne'matga qiyoslaydi. Tarjimamizda biz ham ayni shu she'riy san'atga murojaat qildik,

*Sweet torment it brings, the soul*

It endures

A flower in one hand, a fire

The other holds.

Keyingi misralar savol tarzida namoyon etilgan. Shoir bag'rini pora-pora bo'lgan nayga qiyoslaydi:

Yuragim-ey, boshlab kelding

Meni qayga?

Bag'rim o'xshar pora-pora

*Bo'lgan nayga.*

Ushbu misralarda "simile" stilistik uslubidan foydalandik. Qiyoslash jarayonida ma'lum sintetik vositalardan foydalanilgani sababli ingliz tilida ham shunday qiyoslar yuzaga keltirdik:

Oh, a heart of mine, where did you

Roam and stray?

My chest is in shreds, so measy

*As torn as hay.*

She'riyat bu – obrazli tafakkur demakdir. Chinakam shoir obrazni shu darajada aniq-tiniq tasvirlaydiki, bu obraz o'quvchi ko'z o'ngida yorqin manzara hosil qiladi.

Ko'nglim sezar – bu so'qmoqdan

O'tolmayman,

Qaytib ketay desam, qaytib

Ketolmayman.

Chaqirtoshlar tovonimdan

Tishlab olgan,

Qo'llarimdan kiyikchalar

Ushlab olgan.

Tovoni chaqirtoshlarga botib, qo'llaridan kiyikchalar ushlab olgan shoir obrazi – chindan ham nozik topilma. Obraz shu darajada jozibaliki, ko'ngilda hayrat uyg'otadi, tasavvurda muhrlanib qoladi. Tarjimada bu obrazni sofligicha saqlashga urindik va bu jarayonda she'riy takror uslubidan ham foydalandik.

Feels how unable is my aching heart.

To pass this pain

*If I say I'll return, I want, I*

Shall only feign.

Splinter, stones have so tightly bitten

My boots and heels,

The fawnies have held so, so fast

Captured- my hands.

Ma'lumki, har qanday tarjima muayyan darajada ijodiy ish hisoblanadi. Badiiy asarlar tarjimasi esa alohida yondashuvni talab etishi, mahorat va san'atkorlikni taqozo qilishi jihatidan san'at iqlimidir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Muhammad Yusuf she'riyati nafaqat mazmun, g'oya va shakl teranligi, balki ohang, uslub, poetik oqim jihatidan ham nihoyatda rang-barang she'riyatdir. Shoir she'rlaridagi lirik qahramonning har bir so'zida insoniyat qismatidan bezovta qalb kechinmalari, zamon taqdiriga javobgarlik hissi ufurib turadi va bu tuyg'u kitobxonni ham yashovchanlikka, ogohlikka, hayotsevarlikka undab turadi. Aynan shu lirik kechinmalarni tarjimaga ko'chirish ham mashaqqatli, ham zavqli jarayon. Shoirning she'rlarini yanada ko'proq tillarga tarjima qilish orqali shoir qoldirgan bebaho merosga o'z hissamizni qo'shishimiz mumkin.